

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO‘LIMI  
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-5/4**

**Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2024**

<b>Pirnazarova N.Ch., Haydarova K.D.</b> Semantic analysis of some jewelry lexemes done by researchers	296
<b>Polvannazirova S.X., Maxmudov R.B.</b> Ingliz tilidan o'zbek tili leksikasiga kirib kelgan neo'zlashmalarning muhtasar tahlili	299
<b>Qaxxorova H.Z.</b> Koreys va o'zbek tilida gap bo'laklarining ifodalanishi	302
<b>Qodirova X.M., Ilhomboyeva M.U.</b> Tohir Malikning "Shaytanat" asaridagi ayrim laqablar tahlili	306
<b>Qodirova X.M., Bardiyeva G.U.</b> "Ajdarining tovbasi" hikoyasidagi ayrim mavhum otlarining lingvokulturologik xususiyatlari	307
<b>Qosimova N.F.</b> Konseptual va lingvistik asimmetriyaning tarjimaga ta'siri	309
<b>Qosimova N.F.</b> Tarjimada asliyatni qabul qilishning kognitiv jarayonlari xususida	311
<b>Qurbanova K.R.</b> XX asr boshlari Xiva adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari	313
<b>Qurbonova G.S.</b> Adabiyot olamida insoniyat olami tasviri	315
<b>Qurbonova M.A., Shodiyeva A.A.</b> Jahon tilshunosligida okkazionalizm masalasi	319
<b>Qurbonova N.R., Anvarova U.J.</b> Uilyam Uordsvortning "I wandered lonely as a cloud" she'rida tabiat tasvirining namoyon bo'lishi	321
<b>Rahimova M.Q.</b> Ekologiyat tilshunoslikning tarmog'i sifatida paydo bo'lishi va evolyutsiyasi	323
<b>Rahmatov Y.</b> O'zbek xalq maqollarining qadimiy ildizlari	325
<b>Raimov L.A.</b> Some linguistic and psycholinguistic features of advertising texts	328
<b>Raimova N.B.</b> Sociolinguistic features of literary translation	330
<b>Rajabova N.H.</b> O'roz Haydarning leksik birliklardan foydalanish mahorati	333
<b>Rakhimova Sh.</b> Questions-in-the-narrative as the fragmentary storytelling technique in "Transatlantic" by Colum Mccann	337
<b>Rakhmatova M.M.</b> Scalar implicature in non-fiction travel writings about Central Asia	339
<b>Rasulmuhamedova D.Z., Kuchkarova M.</b> Creative way of the great adib Alp Jamal	341
<b>Raxmatova X.N.</b> Bugungi kunda zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati tuzishning lingvistik asoslari	343
<b>Roziqova G.Z., Toshmatova M.M.</b> Ingliz va o'zbek tillarida maza-ta'm semasini ifodalovchi leksemalar	345
<b>Ro'zmetova S.</b> Ertaklarda mevdan tug'ilish motivi ko'rinishlari	347
<b>Ro'zmetov H.Q., Vapayeva Sh.U.</b> Fransuz tilida atoqli otlarning stilistik ro'li	351
<b>Safarmaxmatova Z.N.</b> Bosma media olamida tilning ekspressivlik tendensiyalari	355
<b>Safarova I.</b> Yuridik matn va terminlarni tarjima qilishda madaniy omillarning ta'siri xususida	357
<b>Salayeva Q., Bahodirova F.</b> Ingliz va o'zbek tillari internet diskursi	360
<b>Saidnazarov T.N.</b> Challenges and Opportunities of Machine Translation in Cross-Cultural Communication: A Critical Analysis	362
<b>Saidniyozova Sh., Sobirova N.</b> Qahramonlik va mardlikni ulug'lovchi ingliz va o'zbek maqollarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlari	366
<b>Sayidov Sh.X.</b> Social group's language in sociolinguistics	368
<b>Saparboyeva G., Sattibayeva S.J.</b> So'zlar semantik sathida ko'p ma'nolik hodisasi	370
<b>Sarbarova D.N.</b> She'riy matnlarda qo'llanilgan deyktik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari	372
<b>Sarvarova G.I., Khatamova V.Sh.</b> Communicative-pragmatic features of speech etiquette in different linguocultures: based on the material of russian and english languages	375
<b>Sharipova N.</b> The comparative analyses of semantic and linguoculturological aspects in english, german, russian and uzbek proverbs	377
<b>Sherqulova M.X.</b> Reklama diskursi xususiyatlari va undagi manipulatsiya texnikalari	379
<b>Shimanskaya D.B.</b> Multiculturalism in modern english literature	383
<b>Shukurova N.Sh.</b> Linguoculturological classification of information - analytical terms of journalism genres in the english and uzbek languages	386
<b>Siddiqova N.A.</b> Aforizmlarning lingvistik mohiyati	389
<b>Soybnazarov N.M.</b> Dreiser's "An american tragedy": a critical study	391
<b>Sulaymonova O'.U.</b> Nutqdagi manipulyatsiyaning pragmatik tabiati	393
<b>Sultanova M.R.</b> Types of information in the semiotic order	396
<b>Suvanov H.N.</b> Yosh o'zbek nasrida milliy kolorit an'ana bo'lib kelmoqda	398
<b>Toirova U.S.</b> It zoosemizmi "Bahouddinning iti" hikoyasida	400
<b>Toshboyev B.E.</b> Tilning millat hayotidagi o'rni	402
<b>Toshpo'latova M.I., Sayidov Sh.</b> The fascinating world of sociolinguistics	404
<b>Toirova U.S.</b> Bo'ri talqini "ena bo'ri" hikoyasida	407
<b>Turdaliyeva D.A.</b> Linguistic study of godonyms in english and uzbek	408
<b>Umrzaqov I.I.</b> Uilyam Folkner asarlarida badiiy zamon va makon poetikasi	410
<b>Umurova G.Kh.</b> Contemporary women's prose and psychological issues in russian literature	413
<b>Uralova N.A.</b> "Sut" gastronomik frazeologizmining tasnifi	416
<b>Uralova O.P.</b> Ingliz va o'zbek tillarida zooleksemali maqollarning ekvivalentlik xususiyatlari	418
<b>Vositov V.A.</b> Ingliz tilining yangi rivojlanish davrida so'z o'zlashishi jarayoni	420
<b>Xakimova M.D.</b> She'riyatda obraz va obrazlilik	423
<b>Xalikova D.Ya.</b> Nominativ birliklarda predikativ munosabatning aktuallashishi haqida	425
<b>Xalilova M.I.</b> "Ayol" konsepti bilan bog'liq lingvokulturologik yondashuvlar	427
<b>Xamidova S.N.</b> Grammatik modallik kategoriya sifatida	430
<b>Xamrakulova F.A.</b> Matnlarning tizimli semantik tahlili	432
<b>Xoldorova Sh.A.</b> Ijtimoiy tarmoq muloqotida verbal va nonverbal vositalarning ifodalanishi	434

Shuningdek, Tush ko'rish, folga ishonish, tog'a-jiyan ori, tumor orqali farzandni tanishi, otning vafosi va otning ovoizidan tanib olishi kabi birqancha o'rinlarda dostonga monan ko'rinishlarni kuzatish mumkin.

G'obdintog' hikoyalar asarida esa nuroniy shahrimiz Samarqand hududlarining tasviri hamda voqeiyliklari keltirilgan. Allbatta, milliy ruh va xarakterlar mentalitetga mos tarzda tasvirlangan. Nurilla Chori asarlarida esa Qashqadaryo vohasida yashovchi o'zbek xalqining umumiy xarakterli ko'rinishi tasvirlangan. Sheva oid so'zlari va milliy koloritlari o'z holicha ifodalagan. Ayni haqiqatni aytish kerakki, muallif nutqida ham shevaga oid so'zlar qo'llanilgan.

Asarning badiiy to'qima syujetlari xalqonaligi sezilib turibdi. Tashvishi yo'q odamlar, Qizg'aldoq, Lo'litopmaslik chol, Bo'ron tingan kecha kabi asarlarida xalq hayoti real tasvirlangan va koloritning turli talqinlari namoyon bo'lgani e'tiborni tortadi. Milliy koloritni obrazlarda, syujetlarda, qahramonlar xarakterlarida aks ettiradi. Darhaqiqat fikrimizga qo'shimcha sifatida ustoz Murod Muhammad do'stning "Eng muhimi – Nurilla Chorining hikoyalarida yolg'oni yo'q. To'qilgan joylari bo'lishi mumkin, lekin yolg'oni yo'q" [4] deya ta'kidlovida ham Nurilla Chori asarlarining xalqonaligi, realligi isbotlab turibdi.

Sanjar Tursun ijodida esa, Surxondaryo vohasiga taalluqli milliy ko'rinishlar o'z aksini topib turibdi. "Sunbulaning so'ngi oqshomi, Taqa va Ota" kabi hikoyalarini misol qilib olsak, barchasida o'zbekka xos umuminsoniy sifatlar aksini topgan. Xalq hayotining turli jabhalarini ochib beragan. Shunisi e'tiborni tortadiki, qahramon hayotining tabiat voqealari bilan o'xshash jihatlari ko'rsatib beradi. Bu tasvirining o'xshashligi ijodkordan katta mahorat talab qilishi tabiiydir. Fikrimizga tasdiq sifatida Isajon Sultonning quyidagi fikrini keltiramiz: "Uning asarlarining o'ziga xosligi – voqealar tabiat hodisalari bilan birgalikda ro'y beradi. Qahramonlar hayoti bepoyon va betakror tabiat bilan chambarchas bog'liq" [1]. Bu o'rinda ijodkorning so'zdan foydalanish va qo'llay olish uslubi ko'rinadi. Sunbulaning so'ngi oqshomi asarida farzand dog'idan kuygan ota misolida milliy xarakterdan biri mehr-oqibat tuyg'usini ochib bergan. Bibi Robia' Saidova asarlarida ham tabiat tasviri orqali syujetlar tasvirlangan. Tabiatning qahramonlar hayoti bilan o'zaro mutanosiblikda ekanligi asar voqeiyiligini boyitadi va kitobxonni syujetlar ketma-ketligiga qiziqtirib boradi. Qarg'aga sho'ro davrini taqqoslashini ko'rib chiqamiz: "Bir paytlar qarg'alar dastidan namozlar o'qilmagan, Qur'on tilovat qila olmagan" [2] deyilganda qarg'a ma'nosi dinga cheklov qo'ygan mustabit davri tasvirlanyapti.

Bundan tashqari xalq hayotini tasvirlash holatlari sodda va ravon tarzda ifodalangan. Barcha asarlarida xalq hayoti tasvirlanib, xalq dardi kuylangan.

Yo'qchilik va ochgarchilik kabi real voqealarni ifodalashda turli metodlardan foydalangan.

Maqolada keltirilgan ijodkorlar yengil-yelpilikdan yiroq, xalq hayotini tasvirlashda biri-biridan uslub jihatdan farqli ekani va bitta millat hayoti tasvirlansada turli qirralarni ochib beradi. Sanjar Tursun va Bibi Robia' Saidova asarlarida allegoriya xos tasvir mohirlik bilan tasvirlangan. Allegoriyada inson xarakterining yaxshi va yomon xususiyati albatta tabiat hodisasi yoki birorta hayvon, jonsiz predmed orqali tasvirlanishidir. Anvar Suyun va Nurilla Chori asarlarida dialektizmlar ya'ni shevaga oid so'zlar qo'llanilishi asarlariga o'zgacha tarovat bag'ishlaydi. Sanjar Tursun asarlarida ham dialektizm uchratishimiz mumkin.

Masalan, "... Charvi yegan mushukday ko'zlari mo'ltirab hovliga tomoshsha qilib" [3] jumlasida dialektizm hamda insonning mushukka o'xshashatilishi allegorik tasvirlovdir. Bu o'xshatish muallif tomonidan so'zlangan o'xshatishdir. Ijodkorlar dialektizm orqali qahramonlarning qaysi hududdanligini ifodalab va urf-odatlarini ochib beryapti. Bugungi kun yoshlari ham qanday yo'sinda bo'lmasin o'zbek adabiyotida boy mazmunini yanada boyitish kerakligini anglagan holda milliy urf-odatlarga boy bo'lgan umuminsoniy g'oyalar ilgari suryapti.

Ajdodlar merosini avaylab asramoq bilan birga ulardagi g'oyalarni ilgari surmoqda.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Санжар Турсун Сунбуланинг сўнги окшоми Тошкент – 2019 й.
2. Биби Робиа Саидова Какку овози Тошкент – 2019 й. 115-б.
3. Санжар Турсун Сунбуланинг сўнги окшоми Тошкент – 2019 й. 30-б.
4. Нурилла Чори Ташвиши йўқ одамлар Тошкент – 2019 й
5. [Chig'atoy gurungi - Wikipedia \(wikipedia.org\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Chig'atoy_gurungi)
6. Tohir Malik "O'tkan kunlar romani haqida" 1994 y

UO'K 811.511.1

#### IT ZOOSEMIZMI "BAHOUDDINNING ITI" HIKOYASIDA U.S.Toirova, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

*Annotatsiya. Maqolada it zoosemizming o'ziga xos modernistik g'oyasi alohida o'rin egallagan. Unda hikoyada bayon etilgan it ma'nolari xilma-xil mazmun mohiyat kasb etilishi bilan ajralib*

turadi. It konnotasiyasida vijdon erki, iymon-insof hamda o'zligini anglagan inson siymosisi alohida tilga olinadi.

**Kalit so'zlar:** Zoosemizm, konnotasiya, timsol, iymon, insof.

**Аннотация.** Особое место в статье занимает уникальная модернистская идея собачьего зоосемизма. Описываемые в повести значения собаки отличаются приобретением разного содержания и сущности. В значении собаки отдельно упоминаются воля совести, вера и честность, а также образ человека, осознающего свою личность.

**Ключевые слова:** Зоосемизм, коннотация, символ, вера, честность.

**Abstract.** The unique modernistic idea of dog zoosemy interprets a special meaning in the article. The meanings of the dog described in the story are distinguished by the acquisition of different content and essence, The will of conscience, faith and honesty, and the image of a person who realizes his identity are mentioned separately in the connotation of a dog.

**Key words:** Zoosemy, connotation, symbol, faith, honesty.

**Kirish.** Zoosemizm Zoosemiya termini birinchi marta 1971-yilda ukrainalik leksikolog N.M.Rayevskaya tomonidan kiritilgan. U inson xususiyatlari va sifatlarini tasvirlashda hayvon nomlaridan metafora sifatida foydalandi[ 1].

Zoosemiya so'zi yunoncha zoo – hayvon va sema – ma'no so'zlaridan kelib chiqib, “hayvonlar ma'nosi” degan tushunchani anglatadi. I.L.Lasota zoosemiya termini tor ma'noda hayvonot olami bilan mavzu jihatdan bog'liq leksik birikmalarni ifodalashda qo'llanilishini ta'kidlaydi.[2]

Nazar Eshonqul o'zbek modernism adabiyotining yorqin namoyandalari, sifatida o'zining betarkor ijodi bilan alohida o'rin egallagan.Uning asarlarida g'oyaviy va badiiylik ajralib turadi.

**Asosiy qism.** It zoosemizmi o'zbek adabiyotida o'ziga xos konnotasion talqinlarda ifodalanib, sadoqat, do'st, hamroh, himoyachi, xaloskor kabi ijobiy xislatlarni anglatasa, qul, laganbardor, kofir, ahloqi buzuq kabi salbiy ma'nolarda ham qo'llaniladi.

*Ростданам тасмалардан яна ўша-мунгли ва маҳзун нола — энг қизиги, хиёбонда менга шундай туюлаяпти деган увиллаш келарди. Мен энди тонг қотдим. Ва гап тасмада ҳам, ёзиш ускунасида ҳам эмаслигини сезиб турардим. Хиёбонда менинг кўзимга кўринган ит аслида бўлган ва у ўша дарахтлар орасида туриб увиллаяпти, биз гарчи қанча уринмайлик, фақат унинг овозини ёзиб оляпмиз. Бу ерда қандай сир бор? У қандай ит бўлди? Унинг увиллашида бизни нимадандир огоҳ қилмоқчи бўлаётгандек, сирли нола бор эди. У қандай ит? У қандай увиллаш, нола?*

It orqali yozuvchi insonning psixologik holatini bayon etar ekan, uning o'uy –fikrlari, butun vujudi bilan his qilayotgan tuyg'ularini, mungli nolaning qayerdan paydo bo'lganini, uning ko'ziga it ko'ringani, uning uvillashi haqidagi tasavvurlarga alohida urg'u beradi. Chunki it insonni nimadandir ogon qilish uchun mahzuli nola tortib, hammani o'ziga hattoki zamonaviy uskunalarni ham jalb qila oladi. Nolaning o'ziga xos jihati kishini uzoq muddatga xayolga sho'ng'ibga olib boradi va uni shu xayollar og'ushida sarson qiladi. Demak itning qanday hayvonligi, nolaning sirliligi hammani qiziqtirib qo'yardi.

*Бу нола, бу маҳзунлик бошқа барча оҳанглари фош қилиб, сохталаштириб қўярди. Нега мен шу пайтгача бу андуҳни эшитмаганман, нега шу пайтгача бу мусибатдан узоқ бўлганман? Нега бу нола ўзини хушанишин оҳанглари тагига яширди экан? Нега увиллаётган ит одамлардан ўзини тинҳон тутаяпти экан?[3]*

Yuqoridagi parchada itning xomush,yurakni ezadigan mahzun nolasi insonni o'ylantirib qo'yadi. Nega aynan itning uvillashi kishi tanasini, qalbini larzaga solib, uni ko'roq xavotirga soilib qo'yardi.Bu anduhning siri esa qayerdadir yashiribgan va uni hali hech kim topa ololmagan. Parchadagi it nolasi g'am va anduhdan qiynalgan ma'nolarida qo'llanilgan.

*У ерга бориб, итим увиллар, мен эса кўзларимни юмиб, ёнимда турган итдан узилиб, уни увиллаши билан шу бозда қолдирганча, увиллашидаги мусибатга қўшилиб, олис-олисларга, ўзим ҳам англамаган, гўё ҳамма нарсага ибтидоси бўлиб туюлаётган олисларга кетиб қолардим. Нола мени энди ҳали яхлит бўлган руҳнинг жилваларга қараб бошлаб кетарди. Ҳали ҳеч нарсага исм ҳам, ном ҳам берилмаган ўша ерда мен итим билан яна юзма-юз келардик ва шундагина биз битта вужуд эканимизни сезиб қолардим. [4]*

It zoosemizmi inson qalbidagi dard, alam bilan birga uni qiynayotgan vijdon erkinligini ham aks ettiradi. Mening itim uvillar bunda yozuvchi haqiqatni deb qiynalgan inson siymosini gavdalanitirar ekan, insonning haqqa tomon intilishi, vijdon azobi uni tinj qo'ymayotganini, butun o'uy fikrlarini va ruhiyatini faqatni it nolsi qamrab olganini, o'zi ham itga qo'shilib uvillaganini hayotda topa olmagan haqiqati bilan tasvirlaydi. Demak it ma'nosi vijdon va haqiqat kabi talqinlarsa ham ifodalanib kelar ekan.

*“Кимсан, мендан нима истайсан, сен ит, нега ичимга кириб олдинг?!” деб шивирлардим... Эҳтимол, у ҳам менга шундай деб тикилаётган ва сўраётгандир? Биз юзма-юз турганча бир-*

*биримизнинг кимлигимизни аниқлашга уринардик. У менга қанча боғланиб қолса, мен ҳам унга шунча боғланиб борардим.* [5]

Inson ichidagi it talqini iymon-insof ramzi hisoblanib, insonning o'zligini to'laqonli anglashi kabi ma'nolar bilan chambarchas bog'liqdir. Sababi inson qachon o'zini anglab yetsa, kimligini tushuna boshlasa, haqiqiy insonligini his qilsa, unda vijdon, oqibat hissi uyg'onsa, demak uning siyratida it timsoli gavdalangan bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'z fikriga ega bo'lgan iymonli, insonfli, vijdonli, haqiqatgo'y shaxs sifatida namoyon bo'ladi. O'z dunyosi va olamini yarata olgan inson siymosi aynan Bahouddining iti misolida tanlanib, bu har tomonlama pok, iymonli kishini anglatadi. Bahoudding iti ya'ni avliyodek insonning iti, insonning itga aylanishi, o'zligini anglab, iymonli bo'lishi kabi semalarda talqin qilinadi.

**Xulosa.** Demak Nazar Eshonqulning modernism oqimiga mansub bu hikoyasida o'ziga xos yana bir jihat aniqlangan. It zoosemizmi insonning borliq bilan bo'lgan munosabatini, hayotning bu tashvishlari o'tkinchi ekanligi, umri davomida anglab, uqib o'rgangan ilmi, o'zligini anglashi kabi talqinlarda o'z aksini topdi. Aynan asarda Bahouddining iti semasida it konnotasiyasini tahlil qilganda itning salbiy xususiyatlaridan yiroqda bo'lgan yana boshqa bir jihatida guvoh bo'ldik. Insonning it bo'lib qolishi, uning haqiqiy, iymon-insofli, o'zligini, dunyosini anglagan, shxsiyatini qadrlagan zot bo'lganidan dalolat beradi. It zoosemizmi insonning xarakter xususiyatlarinigina emas, balki uning iymon, insof, vijdon mazmunlariga alohida e'tibor qaratib, talqin qilinarkan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Egorova A. Hunting Down Animal Verbs. – Germany: University of Potsda, 2019. – P.22.
2. Лясота Ю.Л. Английская зоосемия. — Владивосток: ДВУ, 1984. — С.198.
3. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-bahoviddinning-iti-hikoya>
4. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962>
5. Toirova Umida Sobirovna. (2023). SHER ZOOSEMISM IN UZBEK WORKS. Web of Teachers: Inderscience Research, 1(8), 168–176.
6. Toirova Umida Sobirovna. (2023). The description of lion zoosemy in uzbek's novels. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 11, 36–45.
7. Toirova, U. (2021). Maqollarda Zoosemizmlarning ingliz va o'zbek tillaridagi talqini. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 1(1).
8. Fayziyev, B. (2022). Linguistic features of the english literary tale "Alice in wonderland" by Lewis Carroll. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 21(21).
9. Fayziyev Bahodir Baxshullayevich. (2023, июль 6). Ingliz va o'zbek adabiyotida o'smirlar muammosi o'rganilishining ahamiyati. Innovative development in the global science, Boston, USA. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8120354>
10. Fayziyev Bakhodir. (2023). Myths of the peoples of the world in children's reading. International Journal Of Literature And Languages, 3(06), 56–61. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue06-10>

UO'K 81; 81:39

#### TILNING MILLAT HAYOTIDAGI O'RNI

*B.E.Toshboyev, PhD, dots., Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tilning millat vakillari hayotida va millat mavjudligidagi ahamiyati hamda tilga e'tiborsizlik va uni asrab avaylaslikning oqibatlari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** til, millat, milliy til, "an'analar aravasi", milliy xarakter, hududiy yaxlitlik, iqtisodiy hayot, ma'naviy xususiyat.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение языка в жизни и существовании нации, а также последствия пренебрежения и сохранения языка.

**Ключевые слова:** язык, нация, национальный язык, "колесница традиций", национальный характер, территориальная целостность, хозяйственная жизнь, духовный характер.

**Abstract.** This article reflects on the importance of language in the life of the people of the nation and in the existence of the nation, as well as on the consequences of language neglect and adoption.

**Keywords:** language, Nation, national language, "chariot of traditions", national character, territorial integrity, economic life, spiritual character.

Millat vakillarini birlashtiruvchi asosiy vositalardan biri tildir. Muloqotda ishlatiladigan og'zaki belgilar haqida umumiy tushunchasiz umumiy g'oyalar, madaniy qadriyatlar va iqtisodiyot mavjud bo'lmaydi. Til – millat vujudga kelishidan oldin yuzaga kelib hududda yashovchi etnoslarning birlashishida muhim o'rin tutadi hamda vujudga kelgan millat bilan birga yashaydi. Tilning unitilishi millatning yo'q bo'lishidir. V.Gumbold yozganidek, "Til – millatning nafasi, ruhidir". Millat – hududiy va iqtisodiy hayot, til va ma'naviy xususiyat, ma'lum darajada biologik o'ziga xoslik (tashqi ko'rinishda bilinadi) shuningdek, xarakter, temperament va urf-odat xususiyatlari birligiga ega bo'lgan, tarixan tarkib topgan odamlar uyushmasining maxsus shaklidir.